



PEDIATRIYA SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR VAZIFALARI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Davlatimiz rahbari yoshlarga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yogga chiqarish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilash vazifasini qo'ydi. Bularning barchasidan ko'zlangan maqsad sifatli, jamiyatga foydasi tegadigan, o'z ishiga kompetentlik bilan yondashadigan kadrlarni yetishtirishdan iborat. Buning uchun esa, avvalo, ta'limda yuqori sifat bo'lishi zarur. Ta'lim sifati bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Ammo bunga erishish uchun ta'lim sifatiga olib boruvchi turli omillarga e'tibor qaratish, ular ustida ishlash zarurati hech kimda shubha uyg'otmaydi. Bu avvalo o'qituvchining bilim, mahorat, kompetentligi, kreativligi, zamon bilan hamnafasligi bilan bog'liq. Shu bilan birga sifatli ta'lim uchun yetarli sharoit yaratish: bugungi kun axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik ta'limiy dasturlar, kompyuter xonalarini taqdim etish va bu sohada samaradorlikka erishish muhim. Professor -o'qituvchilar mahoratini oshirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, har bir mehnat, yutuq rag'bat topishi ham bu jihatdan katta ahamiyatga ega. O'qituvchilarimizning Respublikamizda, va ayniqsa, xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishlari ta'lim tizimimizga yangidan-yangi innovatsiyalar kiritilishiga, o'z ustimizda yanada ko'proq ishlab, izlanishimizga turtki bo'ladi.

2020-yilda o'qituvchilarimiz turli xorijiy davlatlarda malaka oshirishdi. Shuningdek, 2019-2020 – o'quv yilida xalqaro fakultet ochilishi munosabati bilan Rossiya Federatsiyasidagi Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti bi-

lan qo'shma ta'lim dasturi asosida "Pediatriya" va "Lechebnoe delo" mutaxassisliklari, klinik ordinaturaning "Nevrologiya" mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejaları va dasturlari, dars jadvallari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Ushbu yo'nalishlarda xalqaro fakultetda tahsil oluvchi talabalar uchun maxsus pedagog kadrlar saralab olindi va Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universitetida malaka oshirishi ta'minlandi.

ToshPTI professor-o'qituvchilarining mutaxassislik mahoratini oshirish maqsadida umumiy, mavzuli malaka oshirish uchun Toshkent vrachlar malaka oshirish instituti, Tibbiy oliy ta'lim muassasalari qoshidagi malaka oshirish fakultetlari va ixtisoslashtirilgan markazlarda 2020-yil yanvar-may oylarida jami 18 nafar xodimning mutaxassislik bo'yicha malaka oshirishi ta'minlandi. Ilmiy yo'nalishda 2020-yil may holatiga umumiy himoyalar soni 7ta bo'ldi, shulardan 2 nafar izlanuvchi dissertatsiyasini muddatdan oldin himoya qildi va OAK tomonidan tasdiqlov diplomni ham oldi. 10 nafar izlanuvchi dissertatsiya ishini Ilmiy Kengashga topshirdi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijasini, ilmiy yangilikka va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan patentlarni amaliyotga joriy etish ko'lamini kengaytirish, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan va boshqa ilmiy tadqiqotlar faoliyatiga jalb qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Nazariy bilimlar amaliyotda qo'llanilgandagina jamiyatga foyda keltiradi. Bu oddiy haqiqatdan kelib chiqqan holda, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiy ta'limni rivojlantirish markaziga ish rejasi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta'minlash hamda talabalarning amaliyotda zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, o'zlashtirish darajasini aniq Tibbiy ta'limni rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklariga qay darajada talab borligini o'rganib, qabul kvotalarini baka-

lavriat ta'lim yo'nalishlarida 445tadan 500tagacha, magistratura mutaxassisliklarida 227tadan 238tagacha, va klinik ordinatura mutaxassisliklarida 209tadan 220tagacha oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga takliflar berildi.

Hozirgi kunda malakali mutaxassislariga talab kuchayganini mamnuniyat bilan ayta olamiz. Bu esa tibbiyot sohasida kadrlarni yetkazib berishga yanada mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Shu ma'noda, aholining zamonaviy kasb va mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, magistraturada Neyroreabilitatsiya hamda Bolalar va o'smir qizlar ginekologiyasi mutaxassisliklarini ochish taklifi ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga kiritilgani ham bejiz emas. Galdagi vazifalardan biri ta'limni masofaviy tarzda olib borish metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish, buning uchun zarur bo'lgan texnik resurslar va ilmiy adabiyotlar bilan professor-o'qituvchilarni ta'minlashdan iborat. Pediatriya yo'nalishida sifatli kadrlarni yetishtirish, ularga fundamental nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, jahon standartlariga to'la javob beradigan tajribali mutaxassis etib tarbiyalash bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida ToshPTI'da bu borada yangi loyihalarni ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, aholi turmush darajasining ortishi o'z navbatida ishchilarning professional sifatlariga talabning ortishiga sabab bo'ladi. Bu oliy ta'lim muassasalari faoliyatida birinchi navbatda aholi ehtiyojlarini qondira oladigan sifatli kadrlarni yetishtirish vazifasining ustuvorligini taqozo etadi. Har bir talabani – kelajakda o'z ishinin mohir ustasi bo'lib yetishadigan, zamon talabiga moslasha oladigan, kreativ fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash har qanday oliy ta'lim muassasasi, jumladan, institutimizning ham sifatli pediatri kadrlar tayyorlashdagi ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.



SHE'R QUDRATI

She'ning qudratini bilasizmi? U Hamid Olimjon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf va boshqa ulkan shoirlar qalami ostida yurtimizni, Vatanimizni, o'zbekning o'zligini sevishga, uni hech narsaga almashmaslikka, qadrlashga, mehr berishga, uni asrab – avaylashga, qo'riqlashga chorlovchi qalb da'vati. Aynan qalbdan chiqqan so'z qalblarga yetib borishi mumkin. Shoirni yig'latib, larzaga keltirib, barcha tomirlarini junbushga keltirib, favvoraday otilgan ming hayqiriq, qo'shiq, nola – she'rda hammasi bor.

She'r bizga o'zimizni anglatguvchi, bizni o'rnimizdan turib atrofga, odamlarga, ularning dard – tashvishlariga, quvonch – shodliklariga sherik bo'lishimiz haqidagi eslatma. She'r bu qat – qati ko'p, har bir qavatini ochganimizda mo'jizaviy ma'no topishimiz mumkin bo'lgan kitob. She'r bu ichganimiz sayin yangi ta'm hosil qiluvchi buloq. She'r bu yodlaganimizda qo'ng'iroq bo'lib esimiz-

ga olingan mehr. She'r bu hayot rangi, hayot bilan qalb uyg'unligi.

Adiblar bog'ida mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyondalariga o'rnatilgan haykallarga qarab ular hayoti, taqdiri haqida o'y surasan. Ular hayotiga oshno bo'lish, ijodini o'rganish nechog'li ibratli.

Bizning institutimiz jamoasiga qoraqalpoq xalqining suyuqli shoiri, qoraqalpoq adabiyotining asoschisi-Berdaq ijodi bilan tanishish, o'rganish va targ'ib qilish ishlari berilgani ma'naviy tadbirlarimizning yanada jonli va hayotiyiligini ta'minlaydi. Berdaq ijodini o'rganish esa ushbu ulkan sar-chashmaga ko'milib, undan halollik, poklik, to'g'rilik, adolat, vatanparvarlik kabi go'zal xislatlarni qalbiga jo qilib chiqish demakdir. Bu sehrlil chashma Ozod Sharafiddinov ta'bi-ri bilan aytganda «birinchi mo'jiza – kitob»da jo bo'ladi.

Kavsar Turdiyeva

MASOFAVIY TA'LIMNING MUHIM AHAMIYATI

Aslida masofaviy ta'lim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qaroriga ko'ra sirtqi va kechki ta'lim talabalari uchun masofadan turib ta'lim berish belgilangan. Joriy etilgan onlayn o'qitish kurs platformasi mazkur Qarorni amaliyotga tatbiq qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi

Ammo hayotning o'zi masofaviy ta'limning nechog'li zarur bo'lgan vaziyatda, nafaqat oliy ta'limning sirtqi va kechki, balki kunduzgi bo'limlari, o'rta va o'rta-maxsus ta'limda ham muhimligini namoyon qiladi. Chunonchi, koronavirus epidemiyasi tarqalgan davrda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida ta'limning ushbu ko'rinishi joriy etildi. Xususan, bizning Toshkent Pediatriya tibbiyot institutimizda ham.

Mazkur ko'rilgan tadbirlar esa O'zbekiston Respublikasiga koronavirusning kirib kelishi va tarqalishini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha respublika maxsus komissiyasi yig'ilishining 11-son bayonida belgilangan topshiriqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 27-mart 233-son buyrug'iga asosan amalga oshirildi.

Nihoyatda qisqa fursatda ta'lim uzluksizligini ta'minlash maqsadida masofadan o'qitish tizimi ishlab chiqildi. <http://moodle.tashpmi.uz/> platformasidan foydalanish uchun institut professor-o'qituvchilari va talabalari uchun alohida-alohida login, parollar yaratildi. Mazkur platformaga 5ta bakalavr ta'lim yo'nalishida – 63ta fan bo'yicha, 33ta magistratura mutaxassisliklarida 59ta fan bo'yicha o'quv uslubiy materiallar, institut professor-o'qituvchilarining 350ta videoma'ruzasi yuklandi. ZOOM konferens-aloqa platformasidan onlayn mashg'ulotlarni o'tishda foydalanildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ToshPTI'da ushbu masofaviy ta'limni amalga oshirish uchun yaratilgan sharoitlardan professor-o'qituvchilar unumli foydalanishdi. Institutning 2ta asosiy o'quv binosi hududida bepul Wi-Fi tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratildi. Ma'ruza, vebinarlar uchun maxsus AKT bilan ta'minlangan 2ta zal mavjud bo'lib, ARM binosi 20ta internetga ulangan max-

sus kompyuterlar bilan jihozlandi. Ikkinchi o'quv binoda internetga ulangan 15 ta maxsus kompyuterlar, proyektor va elektron doska bilan jihozlandi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti ichki buyrug'iga muvofiq, masofaviy o'qitishni olib borish uchun fan o'qituvchilarining har bir fandan onlayn dars o'tishi belgilandi.

O'qituvchining onlayn dars o'tish imkoniyati cheklangan sharoitida talabalar va ularning guruh murabbiylari telegram guruhini tashkil qilish va bu guruhga har kuni yangi mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yuklash va mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni <http://moodle.tashpmi.uz/> portalidagi amaliy mashg'ulotlar hamda institut veb-saytidagi video-ma'ruzalardan olish tavsiya va talab etildi.

Shunidek institut ARM telegramm kanalidan ham kerakli axborotni yuklab olish va foydalanishga imkoniyat yaratildi.

O'qituvchi har kuni telegram guruhida mavzu bo'yicha o'zlashtirish uchun yuborgan elektron resurslarni ovozli audioxabar yoki videomashg'ulot sifatida shu guruhga yuklab bordi.

Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan konspekt, 5 minutlik audiojavob, 5 minutlik videojavob, telefon orqali to'g'ridan-to'g'ri javob berish orqali baholandi.

Ba'zi bir kamchiliklarga qaramasdan, asosiysi, ko'zlangan maqsad – talabalarga zarur bilimlarni berishga erishildi. Mashg'ulotlarning klinik amaliyot qismi bemorni ko'rikdan o'tkazish orqali amalga oshirildi, ammo karantin sharoitida buning imkoni yo'q va masofaviy ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatini cheklagan edi. Yechim sifatida institut rahbariyati tomonidan har bir kafedraga volontyorlarni jalb etgan holda amaliy ko'nikmalar bajarilishini video shaklida tayyorlash vazifasi berildi.

Masofaviy ta'lim nafaqat ToshPTI balki butun O'zbekistondagi ta'lim muassasalari uchun yangi tajriba bo'lgani bois, hali bu borada amalga oshiriladigan ishlar ko'p. Pandemiya butun dunyoga, jumladan, oliy ta'lim muassasalariga ham har qanday sharoitga tayyor turish kerakligini ko'rsatdi.

Q. Haitov
ToshPTI o'quv ishlari prorektori, professor.

“SAXOVAT VA KO‘MAK” – O‘ZBEK XALQIGA XOS FAZILAT

Bizning xalqimiz qadim-qadimdan mehr-oqibatli saxovatli, bag‘rikeng xalqlardan sanaladi. Ayniqsa, biron bir inson yoki oilaning boshiga og‘ir, sinovli tashvish tushganda millatimizga xos bo‘lgan hamjihatlik, bag‘rikenglik, mehr-muruvvat, saxiylik va saxovatlilik kabi ma‘naviy qadriyatlar yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 20-aprel kuni sanoat, qurilish va infratuzilma tarmoqlari korxonalarining to‘liq ishlashini ta‘minlash masalalari bo‘yicha o‘tkazgan videosektor yig‘ilishida xalqimizning tarixiy va ma‘naviy qadriyatlarini, mehr-saxovat, oqibat va himmat kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan holda, “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakatini yo‘lga qo‘yish tashabbusini ilgari surgan edi. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan bu jarayonda yirik korxonalar, ularning joylardagi tarkibiy bo‘linmalari, fermerlar va klaster xo‘jaliklari ham ixtiyoriy qatnashishi muhim ekanligi ta‘kidlandi.

Bugungi shiddatli, beayov, tasodiflarga boy kunlarda butun dunyo xalqlari kabi o‘zbek xalqi boshiga ham koronavirus

pandemiyasi tahdid solib turibdi. Ushbu pandemiyani tarqalishini oldini olish, yengish uchun barcha birlashib, jipslashib, hamkorlikda kurashmoqda, bir-birlariga beg‘araz ko‘mak bermoqda.

Bugungi og‘ir vaziyatda xalqimizning ehtiyojmand, ko‘makka muhtoj qatlamlarini aniq va manzilli asosda qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuzaga kelgan “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati omma tomonidan qizg‘in kutib olindi. Ushbu tashabbus vatandoshlarimizning xohish-irodasiga mos ish bo‘ldi. Chunki, mamlakatimizga koronavirus pandemiyasi xavf sola boshlagandan buyon uni bartaraf etish uchun saxovatpesha tadbirkorlar, o‘ziga to‘q yurtdoshlar, ish-bilarmonlar qolaversa xorijdagi vatandoshlarimiz o‘zlarining insonparvarlik xayriya yordamlarini taqdim etib kelmoqdalar. Ushbu saxovat va ko‘makdan birinchi navbatda kam ta‘minlangan, ehtiyojmand, koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan fuqarolar, oilalar manfaatdor bo‘lmoqdalar. Darhaqiqat, mazkur “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati esa barcha saxovatpesha fuqarolarimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan xayriya yordamlarini yagona tizim asosida maqsadli tashkil

etilishida yana bir katta qadam bo‘ldi.

Kimga va qaysi oilaga xayriya qilishni bilmayotgan, lekin Ramazon kunlari savob ishlarni qilishni juda xohlayotgan saxovatpesha yurtdoshlarimiz uchun ham ushbu harakat ayni muddao bo‘ldi.

Ushbu umumxalq harakatidan hyech kim chetda turmasligi muqarrar. Chunki o‘zbek xalqida qiynalganga yordam berish, yiqilganni turg‘izish, och qolganini to‘yg‘azish eng katta savob ishlardan hisoblanadi.

Zero, “Saxovat va ko‘mak” o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan fazilatlardan, sinovli kunlarda mushkul ahvolda qolgan oila yoki fuqarolarni o‘z muammolari qurshovida yolg‘iz tashlab qo‘ymaslikka, O‘zbekistonning har bir fuqarosi qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar, doimo davlatimiz va jamiyatimizning e‘tiborini his qilib turishini ta‘minlashga undovchi va mamlakatimiz bunga qodirliini ko‘rsatuvchi, yaxshi kunlarda ham, bugungiday og‘ir kunlarda ham butun xalqimiz bir bo‘lib, murakkab ahvolda qolgan vatandoshlarimizning yonida turishga chaqiruvchi xayrli tashabbus, qadriyat desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

A. Xudayberdiyev

 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, A.I. Iskandarov, K. Haitov, T.S. A‘zamho‘jayev, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, S.S. Gulyamov, Nashr uchun mas‘ul: R. G‘o‘chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay‘ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223 Cho‘lpon nomidagi NMIU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi. Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko‘chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nusxa. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	--